





Surxondaryo viloyati hokimi Ulugʻbek Qosimov boshchiligidagi delegatsiya Tatariston Respublikasiga tashrif buyurdi



Joriy yilning 4 oktabr kuni Rossiya Federatsiyasi Tatariston Respublikasi poytaxti Qozon shahrida boʻlib oʻtgan “Oʻzbekiston–Rossiya hududlararo hamkorlik boʻyicha III forumi” doirasida erishilgan [kelishuvlarni](#) amalga oshirish, yangi loyihalar boʻyicha muzokaralar oʻtkazish maqsadida kuni-kecha Surxondaryo viloyati hokimi Ulugʻbek Qosimov boshchiligidagi delegatsiya mazkur mamlakatga joʻnab ketgan edi.



Tashrifning birinchi kuni Qozon shahrida Tatariston Respublikasi rasmiy shaxslari, chet davlatlar konsulliklari hamda 150 dan ortiq ishbilarmon doira vakillari ishtirokida Surxondaryo viloyatining iqtisodiy-investitsion imkoniyatlari, turizm salohiyati namoyishiga bagʻishlangan taqdimot boʻlib oʻtdi.



Shuningdek, avvalgi tashriflarda erishilgan kelishuvlar doirasida loyihalarni amalga oshirish, hududlar oʻrtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, tataristonlik ishbilarmon doira vakillari bilan Surxondaryo viloyatida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish yuzasidan ikki va koʻp tomonlama muloqot hamda muzokaralar oʻtkazildi.



Yakunda umumiy qiymati 200 mln dollarlik kelishuvlarga erishilib, shartnoma va memorandumlar imzolandi.